

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

ODILOVA SITORA SAYFITDIN QIZI

**MARKETING VOSITALARI YORDAMIDA XUSUSIY UMUMTA'LIM
MUASSASALARI IMIJINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Science (DSc) on
economics sciences**

Odilova Sitora Sayfitdin qizi

Marketing vositalari yordamida xususiyy umumta'lim muassasalari imijini
shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish..... 3

Одилова Ситора Сайфитдин қизи

Совершенствование методологии формирования имиджа частных
общеобразовательных учреждений с помощью маркетинговых
инструментов..... 39

Odilova Sitora Saifitdin kizi

Improving the methodology for forming the image of private general
education institutions using marketing tools 77

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 83

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI

ODILOVA SITORA SAYFITDIN QIZI

**MARKETING VOSITALARI YORDAMIDA XUSUSIY UMUMTA'LIM
MUASSASALARI IMIJINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1. DSc /Iqt633 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Xoshimov Akrom Abdiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot:

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "15.11" soat 14.00 i majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tsiu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (184 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tsiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "11.11" kuni tarqatildi.

(2025-yil "10.11" dagi 53 raqamli reyestr bayonnomasi)



G.Q. Abduraxmanova
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.D. Djurabayev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

Sh.A. Allayorov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida marketing vositalari yordamida xususiy umumta'lim muassasalari imijini shakllantirish ta'lim bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash, ta'lim sifatiga nisbatan ijobiy ijtimoiy munosabatni shakllantirish, ota-onalar va jamiyat ishonchini mustahkamlash hamda talabalar oqimini barqaror saqlash orqali muassasaning ijtimoiy va moliyaviy barqarorligini kuchaytirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu sababli, xususiy maktablar o'z ijobiy imijini shakllantirish va mustahkamlash orqali ta'lim bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi zarur. "AQShda xususiy maktab o'quvchilari davlat maktablaridagi tengdoshlariga nisbatan standartlashtirilgan testlarda yuqori natijalar ko'rsatadi, kollejga kirish darajasi esa 88 %ni tashkil etadi, bu esa davlat maktablaridagi 57 % ko'rsatkichdan sezilarli darajada yuqori"¹. "Kanadada olib borilgan tadqiqotlar ham xususiy maktab o'quvchilari 15 yoshida yuqori akademik natijalarga erishishini va 23 yoshida oliy ma'lumotga ega bo'lish ehtimoli yuqoriligini tasdiqlaydi"². Mazkur jarayonda raqamli marketing platformalari, PR strategiyalari, brending, foydali tajriba va natijalarni vizual aks ettiruvchi axborot kanallari hamda ishonchli ijtimoiy muloqot orqali ta'lim muassasasining qadriyatlarini, ustuvorliklari va innovatsion yondashuvlari samarali targ'ib etilib, uning ijobiy imiji va bozordagi o'rni mustahkamlanadi.

Jahon amaliyotida ta'lim xizmatlari bozorining yetakchi ishtirokchilari hisoblangan umumta'lim muassasalarining mamlakat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqiga xizmat qilishini samarali boshqarishda bir qator muammolarning ilmiy yechimlarini ta'minlash yuzasidan maqsadli ilmiy tadqiqot ishlari tashkil etilgan. Bu sohada umumta'lim muassasalarining reytingi va raqobatbardoshligini oshirish, maktablar brendini shakllantirish va marketing strategiyalarini takomillashtirishga tizimli yondashish, ta'lim sifatini oshirish, jarayonlarni optimal boshqarish va tartibga solishni takomillashtirish, ta'lim jarayoniga sog'lom raqobatni joriy etish mexanizmlarini jalb etish singari masalalar alohida o'rganilmoqda.

O'zbekistonda marketing vositalari yordamida xususiy umumta'lim muassasalari imijini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish borasida belgilangan ustuvor vazifalar qatoriga ta'lim sifatini axborot vositalari orqali samarali targ'ib qilish, raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi brending strategiyalarini ishlab chiqish, raqamli marketing vositalarini (veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, kontent-marketing va SMM) keng joriy etish, manfaatdor tomonlar (ota-onalar, o'quvchilar, mahalliy jamoatchilik) bilan ishonchli muloqotni tashkil etish hamda ijtimoiy va korporativ javobgarlik tamoyillarini ta'lim imijiga integratsiya qilish yo'nalishlari kiradi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida xususiy ta'lim muassasalarida professional marketing guruhlarini tashkil etilmoqda, raqamli axborot platformalari orqali o'quvchilar yutuqlari va innovatsion yondashuvlar tizimli ravishda targ'ib etilayotgani ta'lim sohasida faol va ijobiy imijni shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda ta'lim tizimini boshqarishni jadal

¹ <https://capenetwork.org/academic-performance>

² <https://www150.statcan.gc.ca/n1/pub/11-626-x/11-626-x2015044-eng.htm>

rivojlantirishga yuqori darajada e'tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 4-bandida "IV. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish", unda esa o'rta ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi respublikamiz umumta'lim sohasining taraqqiyot tendensiyasini chuqur tahlil qilish va umumta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish samaradorligini oshirish asosida ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-sonli "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-sonli "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-sonli "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-apreldagi 243-sonli "Xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarning byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi, 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Xususiy ta'lim muassasalari imijini shakllantirish metodologiyasi bo'yicha tadqiqotlar jahondagi bir qator ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Harvard University (AQSh), Oxford University (Buyuk Britaniya), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Imperial College London (Buyuk Britaniya), Massachusetts Institute of Technology (MIT) (AQSh), Stanford University (AQSh), California Institute of Technology (AQSh), ETH Zurich (Shveysariya), University of Chicago (AQSh), University of Pennsylvania (AQSh), Princeton University (AQSh), Yale University (AQSh), University of Tokyo (Yaponiya), University of Toronto (Kanada), Australian National University (Avstraliya)da olib borilmoqda.

Xususiy ta'lim muassasalari brend imijini shakllantirishga oid xorijiy ilmiy tadqiqotlar, asosan, quyidagi markazlar va universitetlar tomonidan amalga oshirilgan: Harvard Business School (AQSh) tomonidan olib borilgan tadqiqotda

brendni shakllantirish va boshqarishga oid strategik yondashuvlar ta'lim muassasalarining brend kapitali va reputatsiyasini oshirish usullariga qaratilgan; Imperial College London (Buyuk Britaniya) tomonidan xususiy ta'lim muassasalarining brend qiymatini baholash usullari hamda brend kapitali ko'rsatkichlarini rivojlantirish va qo'llash yo'llari ishlab chiqilgan; INSEAD (Fransiya) tomonidan ta'lim tizimidagi brendlarni tasniflash va ularga baho berish metodologiyalari hamda brend boshqaruvi va marketing tadbirlari muvofiqlashtirilgan; University of Cambridge (Buyuk Britaniya) tomonidan xususiy ta'lim muassasalarining imijini yaratish va brend strategiyasini ishlab chiqish hamda amalga oshirish yondashuvlari o'rganilgan; Stanford University (AQSh) tomonidan ta'lim sohasida brendni shakllantirish va boshqarish modellari tadqiq etilgan hamda brend tadbirlari samaradorligi baholangan; University of Oxford (Buyuk Britaniya) tomonidan xususiy ta'lim tizimida brend kapitali va imijini boshqarish usullari tadqiq etilgan. Bu ilmiy markazlar va oliygohlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish asosida xususiy ta'lim muassasalari brend imijini yaratish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha izlanishlar olib borilgan va amaliyotda keng qo'llanilgan.

Xususiy ta'lim muassasalari imijini baholash usullariga oid xorijiy tadqiqotlar quyidagi universitet va markazlarda olib borilgan: Imperial College London (Buyuk Britaniya) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ta'lim muassasalarining brend qiymatini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar asosida brend qiymatini baholash (bozor ulushi, brend premiumi, brend daromadi), iste'molchilar qabul qilishi asosida brend qiymatini baholash (brend xotirasi, brend logligi, brend assotsiatsiyasi), ekspert baholash usullari (Delfi, AHP, SWOT-tahlil) ko'rib chiqilgan; University of Cambridge (Buyuk Britaniya) tadqiqotlarida xususiy ta'lim muassasalarining brend qiymatini baholashda brend aktivlari asosida qiymat baholash (brend nomi, brend logligi, brend imiji), brend portfeli tahlili asosida qiymat baholash, iste'molchilar to'lashga rozi bo'lgan summa asosida qiymat baholash yondashuvlari ko'rib chiqilgan; University of Cambridge (AQSh) tadqiqotlarida xususiy ta'lim muassasalari brend qiymatini baholashda bozorlardagi ulushi hamda brend premiyasi asosida brend qiymatini hisoblash, imijni baholashda esa iste'molchilar xulqini tahlil qilish yondashuvlari o'rganilgan. Mazkur universitet tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan usullar xususiy ta'lim muassasalari brend imijini baholashda keng qo'llanilishiga qaramay, hududiy va demografiq hamda boshqa omillarni inobatga olgan holda xususiy ta'lim muassasalari imijini shakllantirish metodologiyasini yanada takomillashtirish mumkin.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xususiy maktablarda ijobiy imijni shakllantirishning nazariy jihatlar va zamonaviy nazariyalari xorijlik olimlar, jumladan Aaker A., Keller K., Gad T., George S., Ronald A., Waqas M., Brzaković A., Thanh asarlarida tadqiq etilgan³.

³ A. Aaker, Strategic Market Management, Wiley, 2008/ Keller K., Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity, Prentice Hall, 2003 - Business & Economics / Thomas Gad, 4-D Branding: Cracking the Corporate Code of the Network Economy First Edition, Financial Times Management, 2000/ George S. and Ronald A., Brands, Brand Management, and the Brand Manager System: A Critical-Historical Evaluation, Journal of Marketing Research, Vol. 31, No. 2, Special Issue on Brand Management 1994, Published by: Sage Publications, Inc./ Waqas M., The Role of Brand Experience, Journal of Nonprofit and Public Sector Marketing, 34(4), 2022.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida xususiy umumta'lim muassasalarida jozibador imijni yaratish bo'yicha N.V.Xmelkova, T.Yu.Mitrofanova, V.V.Vanyushkina, V.B.Simonov singari olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar⁴.

O'zbekistonda ta'lim tizimida imij va brendni yaratishning nazariy-uslubiy jihatlar va tashkiliy masalalari B.R.Adizov, A.Askarov, G.N.Axunova, B.A.Begalov, A.Sh.Bekmurodov, K.Gaziyev, S.S.Gulyamov, Sh.N.Zaynutdinov, M.A.Ikramov, N.K.Yo'ldoshev, D.X.Nabiyev, S.T.Norkulov, D.N.Raximova, R.A.Raxmanbayeva, M.X.Saidov, N.Sodiqov, M.Xakimova, D.Xashimova, Sh.D.Ergashxodjayeva, G.M.Ostonaqulova, B.T.Salimov, Q.Q.Qurolov, S.A.Eshmatov singari olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan⁵.

Biroq, mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalari brend imijini yaratish metodologiyasini takomillashtirish asosida raqobatbardoshligini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlar to'liq yoritilmagan. Shu jihatdan, mazkur masalalar yuzasidan bir qator ilmiy, uslubiy va amaliy muammolarning hal etilish zarurati mavjud.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga

/Brzaković A., The Interface between the Brand of Higher Education and the Influencing Factors. Sustainability (Switzerland), 14(10), 2021/ Thanh, Factors effect on brand equity in higher education, 2021.

⁴ Хмелкова Н.В., Теоретико-методологические основы объединения брендов в стратегических маркетинговых альянсах. – Екатеринбург, 2013; Митрофанова Т.Ю., Разработка конкурентной стратегии вуза на рынке образовательных услуг. – Санкт-Петербург, 2011; Ванюшкина В.В., Бренд высшего образовательного учреждения: особенности формирования и продвижения, Ростов-на-Дону – 2011; Симонов В.Б., Управление развитием маркетингориентированной инфраструктуры инновационной деятельности в вузе. – Москва, 2008.

⁵ Adizov B.R., Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari. Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali, 2022; Askarov A. Oliy ta'lim muassasasida ta'lim sifati monitoringini takomillashtirishning ayrim jihatlar // Образование и инновационные исследования, №3, 2022; Axunova G. O'zbekistonda ta'lim xizmatlari marketingi muammolari: monografiya. – T., 2005. – 244 b.; Begalov B.A., Jukovskaya I.Ye. Высшие учебные заведения в формировании национальной инновационной системы страны //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2012. – 4.; Bekmurodov A.Sh. Интерактивное обучение и информатизация образования – важнейшее условие для выпуска профессиональных и компетентных кадров //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2011. – 1.; Образование в системе человеческого развития: мировая практика и опыт Узбекистана /под ред. акад. Гулямова С.С., акад. Абдурахмонова К.Х. – Т., 2004. – 170 с.; Gaziyev K. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini boshqarish va tashkil etishning huquqiy jihatlar. Общество и инновации 3.6/C, 2022; Zaynutdinov Sh.N., Ochilov A.O., Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish samaradorligini baholash, Iqtisodiyot va ta'lim. – 2010. – 2.; Ikramov M.A. Проблемы становления рынка образовательных услуг в Республики Узбекистан, Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы; Yo'ldoshev N.K., Menejment asoslari va biznes reja, 2017, 978-9943-07-563-4; Набиев Д.Х. Специфика маркетинговых исследований в системе образования, Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 2021; Norkulov C.T. Ta'lim muassasalarini raqamlashtirish asosida samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar. Journal of new century innovations 25.4, 2023; Raximova D.N. Перспективы развития высшего образования в Узбекистане. International Scientific and Practical Conference World science 2017 (Vol. 2, No. 1, pp. 49-52). ROST/ Raxmanbayeva R.A. Управление интеллектуальным потенциалом вузов в условиях интеграции образования и производства. Avtoref. Dis. d-ra ekonom. nauk. 2012;50; Saidov M.X., Сифровизация образования в аспекте инновационного развития Республики Узбекистан, 2020; Xakimova, M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifati va samaradorligini oshirish–davr talabi." Arxiv nauchnykh issledovaniy 3, 2020/Xashimova, D., "Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 1, 2020.; Ergashxodjayeva Sh.D, Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari. Science and innovation. 2023;2(Special Issue 7):42-6.; Eshmatov S.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida brend siyosatini yuritish prinsip va omillari. Архив научных исследований, 2022 Jun 29;4(1).; Qurolov Q.Q. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy ta'lim tizimining takomillashuvi qonuniyatlari. – T.: TDIU, 2016.

muvofiq AL-7723051332 “Oliy ta’lim tizimini baholashda miqdor va sifatga oid majmuaviy tadqiqotlar metodologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi 2024-2026-yillarda amalga oshirilgan ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi marketing vositalari yordamida xususiy umumta’lim muassasalari imijini shakllantirishning metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumta’lim muassasalari ijobiy imijni yaratishning nazariy-uslubiy asoslarini o‘rganish;

umumta’lim muassasasining imijini shakllantirish va ilgari surishning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;

umumta’lim muassasasi imijini boshqarishning nazariy-metodologik yondashuvlarini tizimlashtirish;

raqobat sharoitida O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim muassasalari brend imijini yaratish metodologiyasini takomillashtirish zaruratini asoslash;

umumta’lim muassasalari imijini baholashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish;

umumta’lim muassasalari imijini baholashning innovatsion uslubiyotini takomillashtirish;

O‘zbekiston Respublikasida umumta’lim muassasalari imijini baholash;

O‘zbekiston Respublikasida umumta’lim muassasasining rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish;

xususiy maktablarda o‘qituvchining “raqamli imijini” yaratish modelini ishlab chiqish;

umumta’lim muassasasi imijini shakllantirish va ilgari surishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish;

O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim muassasalari brend imijini yaratish metodologiyasini takomillashtirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish;

O‘zbekistonda xususiy maktablarni 2030-yilgacha rivojlanishining prognoz ko‘rsatkichini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xususiy maktablarning marketing faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini marketing vositalari yordamida xususiy umumta’lim muassasalari imijini shakllantirishning metodologiyasini takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida so‘rovnoma, umumlashtirish, tizimli-mantiqiy tahlil, ko‘p omilli va dinamik taqqoslash, davriylashtirish, ekonometrik modellash, induksiya va deduksiya, tahlil, kuzatish, guruhlash, regressiya-korrelyatsiya, eng kichik kvadratlar usuli (PLS), raqobatdoshlikni baholashning integral ko‘rsatkichi, indeks, grafik tasvirlash, prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “umumta’lim muassasasi imiji” tushunchasining iqtisodiy mazmuni ta’lim sifatini, ijtimoiy ishonchni va raqobatbardoshlik darajasini

shakllantiruvchi, jamoatchilik ongida barqaror namoyon bo'luvchi g'oyaviy-psixologik va tashkiliy-iqtisodiy kategoriyaning raqamli reputatsiya ko'rsatkichlari, ta'lim xizmatlari bozoridagi nufuz indeksi hamda istiqbolli abituriyentlar ulushi bilan miqdoriy baholanuvchi innovatsion yangilik sifatidagi xususiyati nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

umumta'lim muassasasi imijining muhim natijasi sifatida bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasasiga kirgan talaba soni, oliy ma'lumotli pedagoglar tarkibi, ta'lim sifatining yuqori darajasi, ta'lim oluvchilar soni mezonlaridan kelib chiqib, umumta'lim muassasalari imijini "past" [$0,1 \leq UTMI_p \leq 0,5$], "o'rtacha" [$0,51 \leq UTMI_o \leq 0,75$], "yuqori" [$0,75 \leq UTMI_yu \leq 1$] shkalasi chegaralarida baholash taklifi asoslangan;

keng ko'lamli ma'lumotlar tarkibidan asosiy komponentlar tahlili usuliga ko'ra nisbatan xususiyatli omillarni ajratib olishda xususiy umumta'lim muassasalarining brend tarkibi tuzilmaviy modelining o'qituvchi imiji [$O'I = 0,45$], o'qituvchi raqamli imiji [$O'RI = 1,32$], muassasa infratuzilmasi [$MI = 1,72$] indeks qiymatlari aniqlangan;

umumta'lim muassasalari imijini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga veb-sayt trafigi, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik indeksi, on-layn reytinglar va foydalanuvchilar fikrlari bilan bog'liq ko'rsatkichlardan iborat "raqamli imij" komponentlarini integratsiya qilish asosida brending samaradorligini 30-35 %ga oshirish va abituriyentlar sonida 20 %gacha o'sishga erishish asoslangan;

O'zbekiston Respublikasidagi xususiy maktablar faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar o'rtasidagi ekonometrik bog'liqliklar avtoregressiyalangan integrallangan suriluvchi o'rtacha model orqali 2030-yilga qadar rivojlanishning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

umumta'lim muassasalari ijobiy imijni yaratishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish orqali umumta'lim muassasasining imijini shakllantirish va ilgari surishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan;

umumta'lim muassasasi imijini boshqarishning nazariy-metodologik yondashuvlarini tizimlashtirilib, raqobat sharoitida O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalari brend imijini yaratish metodologiyasini takomillashtirish zarurati asoslangan;

umumta'lim muassasalari imijini baholashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish asosida innovatsion uslubiyoti takomillashtirilgan;

xususiy maktablarda o'qituvchining "raqamli imijini" yaratish modeli ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalari brend imijini yaratish metodologiyasini takomillashtirishning marketing strategiyalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv va metodlarning maqsadga muvofiqligi, tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, shuningdek, xulosa va takliflarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatni kuchayishi sharoitini e'tiborga olish, ularning ijobiy imijini yaratishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflardan belgilangan maqsadga erishishda ta'lim-tashkiliy jarayonlarini optimal boshqarish, samarali qarorlar qabul qilish, bilimli bitiruvchilarni tayyorlashning uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumta'lim muassasalarining zamonaviy holati va istiqboldagi arxitekturasini baholash, ta'lim sifatini oshirish va raqobat muhitini shakllantirish, har bir yuqori malakali kadrlarni ishga joylashtirishga individual yondashish bo'yicha maqsadli tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi hamda tadqiqotning uslubiy ishlanmalari, taklif va tavsiyalaridan oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun "Branding", "Personalni boshqarish", "Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti", "Strategik menejment" va boshqa fanlarni o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati xususiy maktablarining zamonaviy holati va istiqboldagi arxitekturasini baholash, ta'lim sifatini oshirish va raqobat muhitini shakllantirish, har bir maktab bitiruvchilari o'qishga kirishiga erishishga individual yondashish bo'yicha maqsadli tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi hamda tadqiqot ishning uslubiy ishlanmalari, taklif va tavsiyalaridan oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun "Marketing", "Brend boshqaruvi", "Strategik marketing" va boshqa fanlarni o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Marketing vositalari yordamida xususiy umumta'lim muassasalari imijini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish asosida raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "umumta'lim muassasasi imiji" tushunchasining iqtisodiy mazmuni ta'lim sifatini, ijtimoiy ishonch va raqobatbardoshlik darajasini shakllantiruvchi, jamoatchilik ongida barqaror namoyon bo'luvchi g'oyaviy-psixologik va tashkiliy-iqtisodiy kategoriyani raqamli reputatsiya ko'rsatkichlari, ta'lim xizmatlari bozoridagi nufuz indeksi hamda istiqbolli abituriyentlar ulushi bilan miqdoriy baholanuvchi innovatsion yangilik sifatidagi xususiyati nuqtayi nazaridan takomillashtirish bo'yicha takliflardan oliy o'quv yurti talabalari uchun tavsiya etilgan "Brendni boshqarish" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2025-07-03 sanadagi 265-son buyrug'i). Mazkur taklif umumta'lim muassasalari imijini shakllantirishni metodologik jihatdan iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan faoliyat sifatida baholangan holda muassasaning nufuzi va o'z brend imijini ta'minlashda optimal foydalanishning uslubiy asoslarini takomillashtirgan holda faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

umumta'lim muassasasi imijining muhim natijasi sifatida bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasasiga kirgan talaba soni, oliy ma'lumotli pedagoglar tarkibi, ta'lim sifatining yuqori darajasi, ta'lim oluvchilar soni mezonlaridan kelib chiqib, umumta'lim muassasalari imijini "past" [$0,1 \leq UTMI_p \leq 0,5$], "o'rtacha" [$0,51 \leq$

$UTMI_o \leq 0,75$], “yuqori” $[0,75 \leq UTMI_{yu} \leq 1]$ shkalasi chegaralarida baholash taklifi O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining 2025-yil 21-fevraldagi 03-33-540-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida O‘zbekiston Respublikasi xususiy umumta’lim muassasalari reytingi tuzilib, mamlakatda ijtimoiy motivatsion tizim shakllantirilgan;

keng ko‘lamli ma’lumotlar tarkibidan asosiy komponentlar tahlili usuliga ko‘ra nisbatan xususiyatli omillarni ajratib olishda xususiy umumta’lim muassasalarining brend tarkibi tuzilmaviy modelining o‘qituvchi imiji [$O'I = 0,45$], o‘qituvchi raqamli imiji [$O'RI = 1,32$], muassasa infratuzilmasi [$MI = 1,72$] indeks qiymatlarini aniqlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining 2025-yil 21-fevraldagi 03-33-540-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etilishi natijasida Humo academy school, Salam international school xususiy maktablarning ijobiy imiji oshib, mamlakat xususiy umumta’lim muassasalari reytingida top-10 likka kirishiga erishilgan;

umumta’lim muassasalari imijini shakllantirish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga veb-sayt trafigi, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik indeksi, onlayn reytinglar va foydalanuvchilar fikrlari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlardan iborat “raqamli imij” komponentlarini integratsiya qilish asosida brending samaradorligini 30-35 %ga oshirish va abituriyentlar sonida 20 %gacha o‘shishga erishish taklifi O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining 2025-yil 21-fevraldagi 03-33-540-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni joriy etilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarning xizmatlar hajmi 2022-yilda o‘tgan yilga nisbatan 12,5 %ga oshgan.

O‘zbekiston Respublikasidagi xususiy maktablar faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar o‘rtasidagi ekonometrik bog‘liqliklar avtoregressiyalangan integrallangan suriluvchi o‘rtacha model orqali ishlab chiqilgan 2030-yilga qadar rivojlanishning prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining 2025-yil 21-fevraldagi 03-33-540-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligini rivojlantirishning 2030-yilgacha bo‘lgan davrdagi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda asosiy ko‘rsatkich va parametrlarni o‘zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotning asosiy g‘oyasi va natijalari ma’ruzalar shaklida 4 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida bayon etilgan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 1 ta monografiya, 18 ta ilmiy maqola, shundan Oliy attestatsiya komissiyasining

doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 13 ta va xorijiy ilmiy jurnallarda 5 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 235 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan; tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan; tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatitsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Xususiy umumta'lim muassasasi imijini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, unda umumta'lim tizimida ijobiy imijni shakllantirishning bugungi kundagi dolzarbligi asoslangan, umumta'limda imijni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari yoritilgan hamda umumta'lim muassasasi imijini boshqarishda nazariy metodologik yondashuvlarning roli yoritib berilgan.

Zamonaviy xususiy ta'lim muassasalarining bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning brend imiji va korporativ identifikatsiyasi qanday shakllanganiga bog'liq. Aynan shu nuqtayi nazardan, xususiy maktablarning imijini shakllantirish jarayoni murakkab tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayon quyidagi ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oladi: avvalo, imijning poydevori sifatida xususiy maktab identifikatsiyasi va korporativ identifikatsiya aniqlanadi. Bu bosqich – tashkilotning o'zini o'zi anglash va ta'lim bozorida aniq pozitsiya egallashiga zamin yaratadi. Shundan so'ng, asosiy elementlar (o'rta daraja) aniqlanadi.

Bu elementlarga maktabning tashqi ko'rinishi – korporativ dizayni, ichki va tashqi kommunikatsiya vositalari, ta'lim dasturlarining sifati, maktabning qadriyatlari, madaniyati va boshqa turli hamkorlik shakllari kiradi. Aynan shu elementlar orqali maktab asosiy brend komponentlarini shakllantira boshlaydi. Shuningdek, bu bosqichda ichki va tashqi muhit omillari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tashqi omillar qatoriga media, ota-onalar fikri, jamiyatda shakllangan ijtimoiy stereotiplar, iqtisodiy va siyosiy vaziyat, raqobatchilar faoliyati kiradi. Ichki omillar esa maktab rahbariyatining boshqaruv uslubi, ichki kommunikatsiya madaniyati, tashkilot infratuzilmasi, moddiy-texnik bazasi va motivatsion tizimlar bilan belgilanadi. Bu omillar asosiy elementlar bilan o'zaro uzviy aloqada bo'lib, natijada yuqori darajadagi indikatorlar – ya'ni maktab brendi va korporativ imij shakllanadi(1-rasm).

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, innovatsion jarayonlarning maqsadi, mazmuni, natijalari va alohida pedagogik innovatsiyalar ota-onalar uchun har doim ham tushunarli emas, qolaversa, ularning maktabdan kutayotgan umidlari ta'lim

xizmatlarining potensial iste'molchilari orasida ta'lim muassasasi haqida umumiy g'oya asosida shakllangan, har doim ham ular va ularning farzandlari haqiqatda oladigan narsalarga mos kelmaydi.(1-rasm)



1-rasm. Xususiy maktablarning brend imiji identifikatsiyasi⁶

Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatdiki, imijning asosiy vazifasi kimgadir yoki biror narsaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishdir. Agar ijobiy fikr shakllansa, u holda ijtimoiy munosabatlar ta'siri natijasida albatta unga ishonch tug'iladi va o'z navbatida, yuqori baho va qat'iy tanlov yuzaga keladi. Ijobiy munosabat natijasida shunday psixologik zanjir vujudga keladi. Bundan tashqari, ijobiy imij, qoida tariqasida, nufuzning oshishiga va o'z-o'zidan mavqe va ta'sir doirasi kengayishiga olib keladi. Ijobiy imij, shuningdek, turli ma'lumotlarga boy bo'lgan faoliyatda alohida o'rin tutuvchi yuqori reytingning muhim omili hisoblanadi.

Umumta'lim muassasasi imijini shakllantirishga nazariy yondashuvlar ko'rib chiqilgach, muallif tomonidan o'quvchilar, ta'lim tuzilmalari xodimlari, potensial mijozlar va ish beruvchilar o'rtasida sotsiologik tadqiqot natijalari taqdim etilgan. Tadqiqot doirasidagi o'tkazilgan so'rov asosida ta'lim muassasasi imijini shakllantiruvchi bir qator omillar quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim sohasidagi ish staji va tajribasi.
2. Professional doiralarda va jamoatchilik orasida taniqlilik.
3. Tashkilot rahbarining obro'si, rahbariyatning professionalligi.
4. Kasbiy jihatdan rivojlanish istiqbollari.
5. Mehnat bozorida bitiruvchilarga talab, ularning ish haqi va xizmat pog'onalaridan ko'tarilishi.
6. Tashkilot xodimlarining ta'lim oluvchilarga munosabati.

⁶ Muallif ishlanmasi

7. Pedagoglarning kasbiy mahorat darajasi va ularning talabchanligi.

1-jadvalda turli olimlar tomonidan berilgan brend imiji ta'riflari qiyosiy ravishda ko'rib chiqilgan.

1-jadval

Brend imijiga ta'riflarning qiyosiy tasnifi⁷

Olimlar	Brend imijiga ta'rif	Ta'rifning o'ziga xos xususiyati
David Aaker	Brend imiji – iste'molchilarning brend borasida umumiy taassuroti, unga nisbatan fikr va his-tuyg'ular yig'indisi.	Imij ko'proq iste'molchilar fikriga asoslangan, shuning uchun o'zgaruvchan va subyektiv bo'lishi mumkin.
Philip Kotler	Brend imiji – mijozlarning brend haqidagi tasavvuri, u brend bilan bog'liq har bir vizual, emotsional va funksional elementni o'z ichiga oladi.	Kamchiliklari shundaki, imij ko'p jihatdan tashqi omillar ta'sirida shakllanadi, bu esa boshqarishni qiyinlashtiradi.
Jean-Noël Kapferer	Brend imiji – brendning tashqi dunyoga ko'rsatgan obrazi, ya'ni brendning xarakteri, qadriyatlari va yagonaligi.	Brendning ichki haqiqiylik va tashqi ko'rinish o'rtasida farq bo'lishi mumkin, bu esa iste'molchilarda noto'g'ri tasavvur hosil qiladi.
Kevin Lane Keller	Brend imiji – iste'molchilar ongida brendga nisbatan yuzaga kelgan sezgi, taassurotlar va fikrlar to'plami.	Imij ko'proq iste'molchilar xabardorligi va marketing harakatlariga bog'liq, shuning uchun doimiy o'zgarib turadi.
Jean Baudrillard	Brend imiji – brendning madaniy va ijtimoiy ma'nosi, u iste'molchilar tomonidan qabul qilinadigan ijtimoiy simvol.	Brend imiji ko'pincha madaniy kontekstga bog'liq bo'lib, uni global miqyosda boshqarish qiyin.
Oybek Xolmurodov	Brend imiji – iste'molchilar ongida brendga nisbatan yuzaga kelgan ijobiy yoki salbiy tasavvur.	Imijni aniq va kvantitativ baholash mezonlari yetishmaydi.
Nigora Tursunova	Brend imiji – brendning tashqi qiyofasi va iste'molchilar bilan munosabat natijasida yuzaga kelgan obraz.	Kamchiliklari — imij ko'pincha tashqi ko'rinishga cheklanishi mumkin.
Muallif ta'rif	Brend imiji – iste'molchilar va jamiyat ongida brendga oid hosil bo'lgan umumiy tasavvur, his-tuyg'u va taassurotlar yig'indisi bo'lib, u brendning o'ziga xosligi, qadriyatlari va tashqi ko'rinishi orqali ifodalanadi.	Shu bilan birga, uning subyektivligi, o'lchashdagi qiyinchiliklar va tashqi omillarga bog'liqligi kamchilik sifatida ko'riladi.

Tadqiqotlar ko'rsatdiki, tashkilotning imijini ta'lim muassasasining o'zi markaziy bo'g'in vazifasini bajaruvchi tizim sifatida tasavvur qilish mumkin, bunday tizimning obyekt sifatida uning atrofida obrazlar, tasavvurlar va hissiy bo'yoqdor baholashlarning ma'lum bir o'zaro bog'liq tuzilmasi shakllanadi.

Dissertatsiyaning **“Xususiyl umumta'lim maktablari imijini baholash metodologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida umumta'lim maktablarida imijni baholashning ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi va ularning rivojlanishidagi nomoddiy

⁷ Muallif ishlanmasi.

qiymatni shakllantirish tendensiyalari tadqiq etilgan hamda umumta'lim maktablarida iste'molchi fikriga asoslangan brend kapitalini baholash usullarining nomoliyaviy yondashuvi va umumta'lim muassasalari brend kapitalini baholash uslubiyoti ishlab chiqilgan.

Umumta'lim tashkilotining imijiga juda ko'p omillar ta'sir qiladi, ulardan ba'zilarini qayd etib o'tish lozim: ta'lim oluvchilar, abituriyentlar va boshqalar uchun ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi raqobatbardoshlik; axborot, moliyaviy, ijtimoiy va boshqa resurslardan erkin foydalanish imkoniyati; yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish imkoniyati; o'qitishning yuqori darajasi; ta'lim darajasiga ta'sir qiluvchi hududiy komponent; institutsional komponent; o'qitishning innovatsion metodlarini qo'llash imkoniyati; mutaxassislarning ta'lim oluvchilarga munosabati, moddiy-texnik ta'minotga ta'sir qiluvchi moliyaviy komponent va hokazo. Bunday omillar mavjudligi tashkilot obrazi va uning brend imijiga ta'sir qiladi, umumta'lim tashkilotining ijobiy brend imijini, ta'lim xizmatlari iste'molchisida va jamoatchilikda ma'lum ishonch zaxirasini yaratadi.

Qayd etish kerakki, $f(x)$, funksiyasi Teylor metodiga ko'ra, (a, b) yopiq oraliqda $(n + 1)$ – tartibgacha hosilalarga ega bo'ladi, demak, model hosil qilish mexanizmi:

$$f(b) = f(a) + \frac{f'(a)}{1!}(b-a) + \frac{f''(a)}{2!}(b-a)^2 + \frac{f'''(a)}{3!}(b-a)^3 + \frac{f^{(n)}(a)}{n!}(b-a)^n + \frac{f^{(n+1)}(\xi)}{(n+1)!}(b-a)^{n+1} \quad (1)$$

Teylor formulasi o'zgartirilib, umumta'lim maktablari imijining innovatsion modelini baholash ishlab chiqildi. Qayd etish joizki, modelda “a” va “b” oralig'ida bo'shliq bo'ladi va bu bo'shliq vaqtni hisobga olgan bo'ladi. Umumta'lim maktablarining imiji omillarining belgilanishi kiritiladi.

$f^*(a)$ – O'zbekiston Respublikasidagi umumta'lim muassasalari soni;

$f^{**}(a)$ – maktab o'quvchilari soni;

$f^{***}(a)$ – pedagogik xodimlar soni;

$f^{****}(a)$ – oliy ma'lumotli o'qituvchilar soni;

$f^{*****}(a)$ – smenada ishlovchi muassasalar soni – mashg'ulotlarning necha smenada o'tkazilishi;

$f^{*****}(a)$ – umumta'lim muassasalaridagi iqtidorli o'quvchilar soni;

$f^{*****}(a)$ – umumta'lim muassasalarida bitiruvchilar soni.

Yana quyidagi mezonlar tenglama bilan belgilangan:

$(b - a)$ – davriylikni ko'rsatuvchi vaqt oralig'i, interval, $(b - a)^{n+1}$ da ifodalanadi hamda maktabning doimiy ravishda yangi ta'lim oluvchilar, yuqori malakali va oliy ma'lumotli yangi pedagogik kadrlar bilan yangilanishini, ta'lim oluvchilar sonini bildiradi.

Quyidagi belgini kiritamiz:

$\llbracket n + 1^{(1!)} \rrbracket$ – O'zbekiston Respublikasidagi umumta'lim muassasalarining hududlar bo'yicha darajasi;

$\llbracket n + 2^{(2!)} \rrbracket$ – ta'lim oluvchilar darajasi;

$\llbracket n + 3^{(3!)} \rrbracket$ – pedagogik tarkib sonining darajasi;

$\llbracket n + 4^{(4!)} \rrbracket$ – oliy ma'lumotli o'qituvchilar sonining darajasi;

$\llbracket n + 5^{(5!)} \rrbracket$ – smenada ishlaydigan muassasalar sonining darajasi,

mashg'ulotlarning smenada o'tkazilishi;

$\llbracket n + 6^{(6!)} \rrbracket$ – umumta'lim muassasalarida iqtidorli o'quvchilar sonining darajasi;

$\llbracket n + 7^{(7!)} \rrbracket$ – umumta'lim muassasalaridagi ta'lim oluvchilar sonining bitiruvchilar bo'yicha darajasi.

Endilikda, umumta'lim muassasalari imijini baholash mezonlarini olish uchun kiritilgan mezonlarni hisobga olgan holda Teylor modelini o'zgartirish lozim:

$$\begin{aligned}\llbracket n + 1^{(1!)} \rrbracket &= f(a) + \frac{f^*(a)}{1!}(b-a) \\ \llbracket n + 2^{(2!)} \rrbracket &= \frac{f^{**}(a)}{2!}(b-a)^2 \\ \llbracket n + 3^{(3!)} \rrbracket &= \frac{f^{***}(a)}{3!}(b-a)^3 \\ \llbracket n + 4^{(4!)} \rrbracket &= \frac{f^{****}(a)}{4!}(b-a)^4 \\ \llbracket n + 5^{(5!)} \rrbracket &= \frac{f^{*****}(a)}{5!}(b-a)^5 \\ \llbracket n + 6^{(6!)} \rrbracket &= \frac{f^{*****}(a)}{6!}(b-a)^6 \\ \llbracket n + 7^{(7!)} \rrbracket &= \frac{f^{*****}(a)}{7!}(b-a)^7\end{aligned}\quad (2)$$

Vaqt qatorlarini hisobga olgan holda ko'rsatkichlarni umumlashtirish orqali tenglamani o'zgartirish mumkin.

$$\begin{aligned}f(b) = f(a) + \frac{f^{(n+1)}(a)}{(n+1)!}(b-a)^{n+1} &= \left(\llbracket n + 1^{(1!)} \rrbracket \frac{f^*(a)}{(b-a)} \right) + \left(\llbracket n + 2^{(2!)} \rrbracket \frac{f^{**}(a)}{(b-a)^2} \right) + \left(\llbracket n + 3^{(3!)} \rrbracket \frac{f^{***}(a)}{(b-a)^3} \right) + \\ &+ \left(\llbracket n + 4^{(4!)} \rrbracket \frac{f^{****}(a)}{(b-a)^4} \right) + \left(\llbracket n + 5^{(5!)} \rrbracket \frac{f^{*****}(a)}{(b-a)^5} \right) + \left(\llbracket n + 6^{(6!)} \rrbracket \frac{f^{*****}(a)}{(b-a)^6} \right) + \left(\llbracket n + 7^{(7!)} \rrbracket \frac{f^{*****}(a)}{(b-a)^7} \right) \quad (3)\end{aligned}$$

Natijada, umumta'lim muassasalarining imijini baholash mezonlari modelini hosil qilamiz:

$$f(b) = \llbracket n \rrbracket \frac{f^{(1+n)}(a)}{(b)^{(n+1)}} \quad (4)$$

Bu model omil mezonlarining umumta'lim muassasalari imijining elementlar darajalariga nisbatini ko'rsatadi. Bunday boshqaruv funksiyalari o'zaro bog'liq bo'lib, umumta'lim muassasalarining brend imiji darajasini ko'rsatadi. Mazkur model asosida integral metod yordamida imijni baholashning matematik modeli ishlab chiqilgan. Qayd etish kerakki, umumta'lim maktablari imijini baholashni hisoblash umumta'lim tashkilotlari imijining haqiqiy mezonlari nisbati asosida amalga oshiriladi va quyidagi belgilar kiritiladi:

$f^*(a)^{1!}$ – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassasalari darajasi;

$f^{**}(a)^{2!}$ – ta'lim oluvchilar darajasi;

$f^{***}(a)^{3!}$ – o'qituvchilar tarkibi darajasi;

$f^{****}(a)^{4!}$ – oliy ma'lumotli o'qituvchilar darajasi;

$f^{*****}(a)^{5!}$ – 2-3 smenada ishlovchi muassasalar darajasi – mashg'ulotlarning nechi smenada o'tkazilishi;

$f^{*****}(a)^{6!}$ – umumta'lim muassasalarida iqtidorli o'quvchilar darajasi;

$f^{*****}(a)^{7!}$ – umumta'lim muassasalari bitiruvchilari darajasi.

Umumta'lim maktablari imijini baholashning batafsil modeli taqdim etilgan:

$$f(b) = \frac{f^*(a)^{1!}}{1!} = \frac{f^{**}(a)^{2!}}{2!} = \dots = \frac{f^{*****}(a)^{n!}}{n!} = f(b)^{n!} \quad (5)$$

Tenglamai o'zgartirilib, umumta'lim tashkilotlari imijini baholashning yakuniy modeli tuzilgan:

$$f(b)^{n!} = f^*(a)^{n+1!} * f^{**}(a)^{n+2!} * f^{***}(a)^{n+3!} * ... * f^{(n+1)}(a)^{n!} \quad (6)$$

Umumta'lim tashkilotlari imijining darajalarini baholash uchun shkala ishlab chiqilgan (2-jadval).

2-jadval

Umumta'lim tashkilotlari imijini baholash darajalari shkalasi⁸

Darajalar	Baho
Yuqori	0,75 va undan yuqori
O'rta	0,51 dan 0,75 gacha
Past	0,1 dan 0,5 gacha

Beshinchi qismda O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalari misolida model aprobatsiyadan o'tkazilgan. Umumta'lim muassasalari imijining yuqori darajasi tashqi va ichki muhit omillarining ijobiy ta'siridan, shuningdek, ta'lim xizmatlari iste'molchisining yuqori ishonchi, ta'lim sifatining yuqoriligi va ijobiy imijdan dalolat beradi.

Umumta'lim muassasalari imijining o'rtachadan yuqori darajasi umumta'lim muassasalari imijining qulay darajasi, ayrim omillarning ijobiy ta'siri va iste'molchilar ishonchini ko'rsatadi. Dastlabki ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, eng ko'p bitiruvchilar Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida. Ayni viloyatlarda eng ko'p o'qituvchilar tarkibi soni, ta'lim oluvchilar soni, muassasalar soni qayd etilgan. Toshkent shahrida eng ko'p bitiruvchilar va ta'lim oluvchilar mavjud.

Tahlil natijalariga ko'ra, eng ko'p umumta'lim muassasalari Samarqand viloyatida 1310 ta joylashgan bo'lib, u yerda o'qituvchilar soni ham eng yuqori ko'rsatkichga ega — 60 065 nafar. Shuningdek, bitiruvchilar va o'quvchilar soni bo'yicha ham eng yuqori ko'rsatkich 766 856 nafarga teng bo'lib, bu viloyat umumta'lim tizimidagi yuklama darajasi yuqoriligini ko'rsatadi.

Eng ko'p o'quvchilar soni Farg'ona viloyatida — 690 313 nafar bo'lib, bu ko'rsatkich bo'yicha Samarqand 766 856 nafar va Qashqadaryo 657 316 nafar bilan viloyatlardan keyingi o'rinda turadi. Oliy ma'lumotli o'qituvchilar soni bo'yicha esa Samarqand 53 407, Qashqadaryo 47 835 va Farg'ona 49 763 viloyatlari yetakchilik qilmoqda.

Modelni aprobatsiyadan o'tkazilib, hududlar miqyosida ko'rsatkichlarni hisoblash 3-jadvalda keltirilgan.

Hisoblangan ma'lumotlarga ko'ra, shunday manzaraga guvoh bo'lish mumkin, imij mezonlarining eng yuqori ko'rsatkichlari quyidagi omillarda kuzatilgan — ta'lim oluvchilar darajasi; o'qituvchilar tarkibi darajasi; oliy ma'lumotli o'qituvchilar darajasi; smenada ishlovchi muassasalar darajasi - mashg'ulotlar smenada o'tkazilishi; umumta'lim muassasalarida smenada o'qiyotgan o'quvchilar darajasi.

⁸ Muallif ishlanmasi

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalarining imiji mezonlarini baholashni hisoblash uchun hisoblangan ma'lumotlar⁹

($f^{(1+n)}(a)^{(1+n)}$ formulasi buyicha) (2024-yil)

Hududlar	1-omil	2-omil	3-omil	4-omil	5-omil	6-omil	7-omil
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,081	0,066	0,086	0,083	0,081	0,099	0,099
Andijon viloyati	0,148	0,102	0,092	0,091	0,086	0,060	0,060
Buxoro viloyati	0,131	0,061	0,070	0,067	0,066	0,050	0,050
Jizzax viloyati	0,110	0,052	0,058	0,056	0,065	0,108	0,108
Qashqadaryo viloyati	0,171	0,112	0,112	0,122	0,127	0,038	0,038
Navoiy viloyati	0,151	0,039	0,052	0,050	0,045	0,089	0,089
Namangan viloyati	0,106	0,092	0,088	0,084	0,081	0,125	0,125
Samarqand viloyati	0,195	0,129	0,124	0,125	0,134	0,089	0,089
Surxondaryo viloyati	0,215	0,092	0,089	0,097	0,101	0,034	0,034
Sirdaryo viloyati	0,122	0,035	0,036	0,035	0,041	0,087	0,087
Toshkent viloyati	0,117	0,090	0,077	0,081	0,096	0,113	0,113
Farg'ona viloyati	0,184	0,117	0,116	0,114	0,107	0,065	0,065
Xorazm viloyati	0,152	0,067	0,074	0,072	0,064	0,084	0,084
Toshkent shahri	0,091	0,087	0,068	0,063	0,045	0,099	0,099

Quyidagi 4-jadval 2024-yil uchun O'zbekistonning barcha hududlarida umumta'lim muassasalari imijini baholash mezonlari bo'yicha hisoblangan integrallashgan ko'rsatkichlarni aks ettiradi. Ma'lumotlar hududlar kesimida imijning tarkibiy omillari o'rtasidagi farqlarni aniqlash hamda maktablar faoliyatining hududiy o'ziga xos jihatlarini ilmiy tahlil qilish imkonini beradi.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalari imijini baholash mezonlarini hisoblash uchun hisoblangan ma'lumotlar¹⁰

($f^{(1+n)}(a)^{(1+n)}$ formulasi buyicha) (2024-yil)

Hududlar	1-omil	2-omil	3-omil	4-omil	5-omil	6-omil	7-omil
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,876	0,849	0,884	0,880	0,876	0,899	0,568
Andijon viloyati	0,519	0,902	0,891	0,891	0,884	0,832	1,548
Buxoro viloyati	0,417	0,837	0,858	0,851	0,849	0,801	1,022
Jizzax viloyati	0,500	0,806	0,827	0,822	0,846	0,908	0,385
Qashqadaryo viloyati	0,679	0,910	0,911	0,918	0,921	0,737	2,680
Navoiy viloyati	0,235	0,744	0,807	0,799	0,780	0,887	0,327
Namangan viloyati	0,665	0,891	0,886	0,881	0,877	0,920	0,655
Samarqand viloyati	0,638	0,922	0,919	0,920	0,926	0,888	1,331
Surxondaryo viloyati	0,421	0,891	0,888	0,896	0,901	0,704	2,423
Sirdaryo viloyati	0,255	0,711	0,720	0,712	0,756	0,886	0,282
Toshkent viloyati	0,735	0,889	0,869	0,876	0,896	0,912	0,709
Farg'ona viloyati	0,531	0,914	0,914	0,912	0,906	0,845	1,653
Xorazm viloyati	0,358	0,850	0,865	0,862	0,844	0,881	0,672
Toshkent shahri	0,402	0,885	0,853	0,842	0,779	0,899	0,780

⁹ Mualllif ishlanmasi.

¹⁰ Mualllif ishlanmasi.

Imij mezonining eng yuqori darajasiga ega hududlar: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari. Endi, ishlab chiqilgan model bo‘yicha umumta’lim tashkilotlarining imijini baholash hisoblash lozim:

$$f(b)^{n!} = f^*(a)^{n+1!} * f^{**}(a)^{n+2!} * f^{***}(a)^{n+3!} * ... * f^{(n+1)}(a)^{n!}$$

O‘zbekiston Respublikasidagi umumta’lim muassasalari imijini baholash hisobi ko‘rsatdiki, Samarqand 54,4 foiz, Qashqadaryo 93,9 foiz, Farg‘ona 51,2 foiz, Surxondaryo 45,9 foiz va Andijon 42,3 foiz viloyatlarida imijning yuqori darajasi qayd etilgan. (5-jadval)

5-jadval

O‘zbekiston Respublikasi umumta’lim muassasalari imijining bahosi¹¹

($f(b)^{n!}$ formulasi buyicha) (2024-yil)

Hududlar	$f(b)^{n!}$	$f(b)^{n!} * 100 \%$
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	0,259	25,871
Andijon viloyati	0,423	42,339
Buxoro viloyati	0,177	17,717
Jizzax viloyati	0,081	8,087
Qashqadaryo viloyati	0,940	93,996
Navoiy viloyati	0,025	2,547
Namangan viloyati	0,244	24,419
Samarqand viloyati	0,545	54,452
Surxondaryo viloyati	0,459	45,923
Sirdaryo viloyati	0,018	1,758
Toshkent viloyati	0,288	28,805
Farg‘ona viloyati	0,512	51,237
Xorazm viloyati	0,113	11,344
Toshkent shfhri	0,140	13,958

Viloyatlarda umumta’lim muassasalari imijining yuqori darajasi qayd etilgan, ularda yuqori malakali o‘qituvchilar tarkibi, eng ko‘p o‘quvchilar, rahbarlar soni, smenalar soni mavjud. Ta’lim xizmatlari iste’molchisining bunday ta’lim muassasalariga ishonchi yuqori, ta’lim sifati ham yuqori darajada. Shu sababli, bu modelni umumta’lim muassasalari imijini baholashda qo‘llash mumkin, chunki u imij darajasini ko‘rsatadi — model samarali.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda umumta’lim muassasalarining rivojlanish holati tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida umumta’lim muassasalarida brend kapitalini shakllantirish omili sifatida zamonaviy maktab modellarining tasnifi keltirilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda umumta’lim tizimining transformatsiyasi va rivojlanish tendensiyalari hamda umumta’lim muassasalarida brend kapitalini shakllantirish jarayonlari tahlil qilinib, xulosalar umumlashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasida umumta’lim tizimida jami 10 154 ta davlat va 645 ta xususiy maktab faoliyat yuritmoqda. Davlat maktablari 6 273 984 nafar, xususiy maktablarda esa 30 553 nafar o‘quvchi ta’lim olmoqda. Shuningdek, davlat muassasalarida 525 538 nafar o‘qituvchi faoliyat yuritayotgan bo‘lsa, xususiy ta’lim sektorida bu ko‘rsatkich atigi 3 578 nafarni tashkil etadi. (6-jadval)

¹¹ Muallif ishlanmasi.

Mulkchilik shakli bo'yicha umumta'lim muassasalari soni, ulardagi o'qituvchilar va o'quvchilar kontingenti¹²

Hududlar	Muassasalar soni, birlik		O'quvchilar soni, kishi		O'qituvchilar soni, kishi		9-sinfni bitirgan o'quvchilar soni, kishi		11-sinfni bitirgan o'quvchilar soni, kishi	
	davlat	xususi	davlat	xususi	davlat	xususi	davlat	xususi	davlat	xususi
O'zbekiston Respublikasi	10154	645	6 273984	30553	525538	3578	490349	1074	442199	694
Qoraqalpog'iston Respublikasi	732	15	353126	176	38711	27	27410	-	24446	-
viloyatlar:										
Andijon	773	46	571816	2532	42657	309	40714	33	36801	-
Buxoro	549	37	324652	1897	30232	268	28539	60	25179	58
Jizzax	558	19	260481	1083	23911	133	20475	40	19159	61
Qashqadaryo	1173	36	639686	670	58662	60	50890	26	47966	-
Navoiy	371	5	183501	184	21201	34	14947	-	13105	-
Namangan	718	44	511219	1320	39541	109	38848	15	36978	-
Samarqand	1272	50	745655	1951	60311	253	54514	7	50919	10
Surxondaryo	936	8	510066	409	45598	41	38946	-	37528	-
Sirdaryo	320	18	156152	359	13674	44	11732	-	11312	-
Toshkent	894	38	508490	845	37313	6	41418	67	35689	-
Farg'ona	964	123	676741	4982	54393	486	54262	295	47595	240
Xorazm	557	30	359573	1088	32925	142	29778	88	25505	147
Toshkent sh.	337	176	472826	13057	26409	1610	37876	443	30017	178


Hududlar kesimida olib borilgan tahlillarga ko'ra, davlat maktablari soni bo'yicha Qashqadaryo (1 173 ta) va Samarqand (1 272 ta) viloyatlari yetakchi hisoblanadi. Xususi maktablar esa eng ko'p Farg'ona (123 ta), Samarqand (50 ta) va Andijon (46) viloyatlarida tashkil etilgan. Toshkent shahri esa 176 ta xususi maktab bilan bu borada eng yuqori ko'rsatkichga ega hudud sifatida ajralib turadi.

Davlat maktablarida o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand viloyatida (745 655 nafar) va Farg'ona viloyatida (676 741 nafar) kuzatilgan. Xususi maktablar ichida esa eng ko'p o'quvchi Toshkent shahrida (13 057 nafar) va Farg'ona viloyatida (4 982 nafar) ta'lim olmoqda. Umuman, xususi maktablarning umumiy ta'lim tizimidagi ulushi juda past bo'lib, ular mavjud muassasalar sonining qariyb 1,3 foizini tashkil etadi. Ayrim hududlarda xususi maktablar umuman mavjud emas yoki son jihatidan nihoyatda kam, masalan, Navoida atigi 5 ta xususi maktab faoliyat yuritmoqda. Boshqa hududlarda esa xususi ta'lim sektori nisbatan faol rivojlanmoqda.

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, xususi maktablarning yana bir yo'nalishi sifatida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ixtisoslashgan maktablarni tashkil etishdir. Albatta bunda moliyaviy jihatlarini salohiyati yetarli bo'lgan ota-onalargina mijoz bo'lishi mumkin.

Dissertatsiya tadqiqot davomida umumta'lim maktab o'qituvchisining raqamli imijini shakllanish modelini taklif qilindi (2-rasm).

¹² <https://www.stat.uz>. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligining veb-sayti



2-rasm. Xususiy umumta'lim maktab o'qituvchisining raqamli imijini shakllanish modeli¹³

Mazkur model xususiy umumta'lim maktab o'qituvchisining raqamli imijini shakllantirish jarayonini bosqichma-bosqich ifodalaydi. Model o'qituvchining mavjud imkoniyat va sharoitlaridan boshlab, yakuniy natijalargacha bo'lgan kompleks tizimni o'z ichiga oladi. Modelning birinchi bosqichi — “Boshlang'ich shart-sharoitlar” bo'lib, unda maktab infratuzilmasi, o'qituvchining raqamli savodxonlik darajasi va texnologik resurslar mavjudligi singari omillar e'tiborga

¹³ Muallif ishlanmasi.

olinadi. Bu omillar keyingi bosqichlar uchun asos sifatida xizmat qiladi. Keyingi bosqich — “O‘qituvchi profilini shakllantirish”, bunda o‘qituvchi raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali raqamli kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu bosqichda dars materiallarini raqamli formatda yaratish, onlayn platformalar bilan ishlash va ijtimoiy tarmoqlarda professional imijni yuritish ko‘nikmalari shakllanadi.

Shundan so‘ng, “Raqamli faoliyat strategiyasini ishlab chiqish” bosqichi boshlanadi. Bu yerda o‘qituvchi o‘z raqamli faoliyatini aniq yo‘naltiradi: platformalarda faol bo‘ladi, ota-onalar va o‘quvchilar bilan onlayn aloqa o‘rnatadi, kontent yaratadi.

Navbatdagi bosqich — “Raqamli imijni shakllantirish jarayoni”, bunda o‘qituvchi ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritadi, raqamli portfolioni yaratadi va o‘zini brend sifatida mustahkamlaydi. Bu imij o‘qituvchining ta’lim sohasida tan olinuvchanligini oshiradi.

Modelning yakuniy bosqichi — “Raqamli obro‘ va tan olinuvchanlik”, ya’ni o‘qituvchining raqamli obro‘si, ta’limdagi samaradorligi hamda o‘quvchilarning raqamli ta’limga qiziqishi ortadi. Bu esa raqamli transformatsiyalangan ta’lim muhitini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Xususiylar umumta’lim maktab o‘qituvchisining raqamli qiyofasini modellashtirish texnologiyasi to‘rt bosqichdan o‘tishni va har bir bosqichda ma’lum natijalarni olishni o‘z ichiga oladi.

Quyidagi 7-jadval maktab o‘quvchilari hamda ularning ota-onalari uchun umumta’lim maktab o‘qituvchisi imijini shakllantiruvchi eng muhim elementlar qaysilar ekanini qiyosiy ravishda ko‘rsatadi.

7-jadval


Maktab o‘quvchilari va ularning ota-onalari umumta’lim maktab o‘qituvchisi imijining muhim elementlari¹⁴

Umumta’lim maktab o‘qituvchisi imijining muhim elementlari	So‘rovnoma ishtirok etgan maktab o‘quvchilarining ota-onalari	So‘rovnoma ishtirok etgan maktab o‘quvchilari
Pedagogik tajribasi	142	206
Shaxsiy fazilatlar (odob-axloqi)	220	134
Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari	272	240
Mehribonligi va samimiyligi	241	177
Ilmiy darajasi va ilmiy unvoni	99	52
Sog‘lomligi	184	140
Tashqi ko‘rinishi	219	174
Professional sifatlari	200	159

3-rasmda quyidagilar aks etadi: raqamli muhitda o‘qituvchining obro‘si ko‘rinishidagi shakllangan imij doimiy ravishda tadqiqot va diagnostika obyekti bo‘lib, raqamli imidjni yaxshilash va umumta’lim maktab o‘qituvchisining obro‘sin oshirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish imkonini beradi. “Umumta’lim maktab o‘qituvchisining raqamli tasviri” modelining asosiy komponentini aniqlashda

¹⁴ Muallif tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari.

so'rovnomasidan foydalanilgani. Umumta'lim maktab o'qituvchisi imiji tuzilmasida o'tkazilgan ekspert so'rovi davomida aniqlangan yetti element asosida poytaxt va viloyat umumta'lim muassasi o'quvchilari va o'qituvchilari onlayn va off-layn ta'limda o'qituvchi obrazining eng muhim elementlari aniqlangan. Ikkala umumta'lim maktabi o'quvchilari o'qituvchi imijining tuzilishida eng muhimi uning kasbiy fazilatlari, individual shaxsiy xususiyatlari, amaliy tajribasi va raqamli kompetensiyasi deb hisoblaydilar.



3-rasm. Maktab o'qituvchilarning ijtimoiy saytlardagi faolligi¹⁵

Bundan tashqari, mintaqaviy umumta'lim maktab o'quvchilari uchun o'qituvchi imijining Toshkent shahridagi maktablarga nisbatan eng muhim elementlari - ijtimoiy saytlardagi (xususan Instagramda) faolligi (58 %), tashqi ko'rinish (21%) va jismoniy salomatligi (8 %). Birinchi umumta'lim maktab o'qituvchilari uchun raqamli kompetensiya (23 %) va amaliy tajriba (19 %) ahamiyati ikkinchi maktabga nisbatan yuqori. Toshkent shahridagi umumta'lim maktab o'qituvchilari uchun ijtimoiy saytlardagi faolligi yuqoriroq.

Toshkent shahrida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ayrim chekka hududlarga nisbatan yuqoriroq bo'lganligi sababli o'quvchilarning ota-onalari umumta'lim maktab o'qituvchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni internet sahifalaridan izlaydilar. Umumta'lim maktablar bilan xorijiy umumta'lim maktablar bilan solishtirganda mahalliy maktablarning Internetdagi o'qituvchilarining raqamli faoliyatidagi zaif nuqtasi – shaxsiy veb-saytning faol emasligi yoki uning yo'qligidir. Ekspert so'roviga ko'ra, o'qituvchilarning ma'lum darajadagi raqamli kompetensiyasi ularning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligiga ta'sir qilishi aniqlangan. O'qituvchilarning Instagram (23.1 %), Facebook (0,78 %), messenjeri, You tube (18,0 %) va Telegram (31,6 %) ijtimoiy tarmoqlaridan foydalanadilar.

Toshkent shahridagi umumta'lim maktablari va viloyatlardagi umumta'lim maktablari o'qituvchilari tomonidan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish nuqtayi nazaridan tafovutlar sezilarli, bo'lib Toshkent shahridagi o'qituvchilar ijtimoiy saytlarda faolroq ekanligi aniqlangan.

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

Maktab o'qituvchilarning ijtimoiy saytlardagi faolligi umumta'lim maktab o'qituvchilari o'rtasidagi so'rovnoma asosida baholangan. Internet va raqamli muhitda o'qituvchi obrazini yaratish va targ'ib qilish zarurligi haqidagi so'rov natijalariga ko'ra Instagram hamda Telegram kanalda o'qituvchilarning kontentlari muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Umumta'lim maktabi o'qituvchilari shaxsiy sifatlariga maktab o'qituvchilari tomonlarini baholashlari natijalaridan ko'rinib turibdiki, Toshkent shahridagi xususiy umumta'lim maktab o'qituvchilari motivator va psixolog sifatida o'qituvchilar ko'z o'ngida zamonaviy imijga ega bo'lishlari trendga aylanmoqda.


O'z navbatida, umumta'lim maktabi o'qituvchining internet va raqamli muhitda o'z imijini shakllantirish va targ'ib qilish harakatlari ular faoliyat yuritayotgan umumta'lim maktabning ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Xususiy umumta'lim maktablari imijini shakllantirishning marketing strategiyalari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini oshirish brend kapitalini shakllantirish omili sifatida tadqiq etilgan, oliy o'quv yurtlarida brend kapitali boshqaruvining marketing strategiyasi takomillashtirilgan, universitetning brend kapitalini baholash metodologiyasidan foydalangan holda, universitetning hayotiylik davri davomiyligi uchun raqobatbardoshlik darajasi aniqlangan.

Ta'lim muassasasining rivojlanishi nafaqat sohada yuz berayotgan o'zgarishlarga nisbatan javob choralari ko'rish, balki mazkur o'zgarishlar sharoitida o'z pozitsiyasini tanlash zarurati bilan bog'liq. Ta'limning innovatsion xususiyati uning boshqa ijtimoiy institutlar bilan ulg'ayib kelayotgan avlodga ta'sir qilish uchun raqobatida muhim vositaga aylanadi. Inson shaxsiyatining rivojlanishi ma'lum darajada oldindan belgilangan bo'lsa, ta'lim muassasasining rivojlanishi oldindan modellashtirilgan bo'lishi kerak. Shu bois, rivojlanayotgan ta'lim muassasasini boshqarish texnologiyasi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

4-rasmda umumta'lim muassasalarining ijobiy brend imijini shakllantirishga yo'naltirilgan marketing yondashuvlari tizimli tarzda aks ettirilgan. Unda maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limning o'zaro hamkorligi asosida maktabning asosiy missiyasi – ta'lim tizimini rivojlantirish va ijobiy brend imijini yaratish yo'nalishlari ko'rsatilgan. Marketing konsepsiyasi asosida raqamli marketing, etik-ijtimoiy marketing, innovatsion marketing va munosabatlar marketingi singari zamonaviy yondashuvlar uyg'unlashtirilgan. Shuningdek, chizmada “5C” marketing kompleksi, ta'lim dasturlari, korporativ madaniyat va hamkorlik omillari orqali maktabda samarali marketing strategiyasini ishlab chiqish va uni nazorat qilish bosqichlari yoritilgan.


Zamonaviy ta'lim tizimi rivojlanayotgan har bir jamiyatda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Ta'lim sifati va samaradorligi esa faqat maktab yoki pedagoglarning faoliyatigagina bog'liq emas. Unga ko'plab omillar, xususan, o'quvchining oilaviy muhitidan tortib, butun jamiyatning ta'limga munosabati, mavjud resurslar, strategik yondashuvlar va uzviy hamkorlik darajasi ta'sir qiladi.



4-rasm. Umumta'lim muassasalari marketing vositalari yordamida ijobiy brend imijini shakllantirishning sxematik modeli¹⁶

“Maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim o'rtasidagi hamkorlik asosidagi ta'lim natijalari modeli” — ta'lim tizimida ko'p darajali va ko'p tomonlama yondashuvi tavsiflangan. Modelning boshlang'ich bosqichi – mavjud sharoit va resurslarning baholanishidir(5-rasm).

¹⁶ Muallif ishlanmasi.



5-rasm. Brend imiji shakllantirishda o'quvchi, oila va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik asosidagi ta'lim natijalari modeli¹⁷

¹⁷ Muallif ishlanmasi

“Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim o’rtasidagi hamkorlik asosidagi ta’lim natijalari modeli” — ta’lim tizimida ko‘p darajali va ko‘p tomonlama yondashuvi tavsiflangan. Modelning boshlang‘ich bosqichi – mavjud sharoit va resurslarning baholanishidir.(5-rasm)

Bu jarayonda o‘quvchilarning ijtimoiy va akademik ehtiyojlari aniqlanadi, ularning oilaviy va jamoaviy resurslari tahlil qilinadi. Shuningdek, maktab, mahalla, sog‘liqni saqlash tizimi va boshqa tashqi resurslar mavjudligi ham inobatga olinadi. Bu bosqichda aniqlangan holatlar keyinchalik dastur va xizmatlar strategiyasini belgilashda asos sifatida xizmat qiladi. Shu orqali o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlari, oilaning qo‘llab-quvvatlash salohiyati, maktabda mavjud pedagogik va moddiy-texnik baza aniqlanadi. Bu bosqichda real ma’lumotlarga asoslangan holda keyingi rejalashtirish ishlari olib boriladi. Resurslar va ehtiyojlar baholangach, ularni qondirishga qaratilgan strategik dasturlar ishlab chiqiladi. Modelda ko‘rsatilganidek, bu yerda quyidagi asosiy yo‘nalishlar: qo‘shimcha xizmatlar, yoshlarni rivojlantirish dasturlari, ota-onalar bilan ishlash dasturi sog‘liqni saqlash va xavfsizlik choralari kuchaytirish, maktabga oid va maktabdan tashqari hamkorliklarni o‘z ichiga oladi. Bunday strategik yondashuvlar har bir o‘quvchining ehtiyojlariga moslashtiriladi.

Ayniqsa, ota-onalar, mahalla, sog‘liqni saqlash markazlari va boshqa tashqi xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan integratsiyalashuv yuqori natijalarga olib keladi. Keyingi bosqichda esa aniqlangan strategiyalar asosida amaliy harakatlar rejalashtiriladi. Bu bosqichda o‘quvchilar, ota-onalar va o‘qituvchilar uchun mos faoliyatlar, mashg‘ulotlar, tadbirlar va ko‘nikmalar dasturlari ishlab chiqiladi. Harakatlar natijasi uch darajada:

Qisqa muddatli natijalar – shartlar belgilanishi, huquq va majburiyatlarning aniqlanishi, dastlabki xizmatlar ko‘rsatilishi.


O‘rta muddatli natijalar – akademik yutuqlar, individual va jamoaviy rivojlanish, maktab, oila va jamoa natijalari.

Uzoq muddatli natijalar – bolaning hayotda o‘z o‘rnini topishi, mustaqil qarorlar qabul qila olishi, sog‘lom jamiyat a’zosi sifatida shakllanadi.

“O‘quvchi, oila va jamiyat o’rtasidagi hamkorlik asosidagi ta’lim natijalari modeli” — oddiygina ta’lim jarayonining sxematik ifodasi emas, balki real hayotiy yondashuv bo‘lib, u orqali ijtimoiy tizimlar o‘zaro uyg‘unlashadi. Bu model har bir ta’lim islohotining asosiy tamoyillarini, jumladan, resurslarni baholash, ehtiyojlarga mos strategiyalar ishlab chiqish, harakatlar samaradorligini tahlil qilish va yakuniy natijalarga erishishni aniq belgilab beradi.


Mamlakatimiz umumta’lim maktablarning brend imiji bir tomondan bitiruvchilarining oliy o‘quv yurtlariga kirishlari ulushi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan pedagoglarning bilimi, ko‘nikmalari va malakalari bilan bevosita bog‘liq. Ijobiy imijga ega umumta’lim muassasalari ta’lim beruvchilar ichida ham, tashqarisida ham boshqa tashkilotlar bilan strategik hamkorlik va hamkorlikni shakllantirish ehtimoli ko‘proq. Bunday hamkorliklar ilmiy hamkorlik, qo‘shma dasturlar, bilim almashish va resurslarni almashish uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin. Shu jihatdan mamlakatimizdagi mavjud umumta’lim maktablardan sifat ko‘rsatkichlaridan iborat 12 ta savoldan iborat onlayn tarzda ijtimoiy so‘rovnoma

asosida imijini rivojlantirish ta'sirlari o'rganib chiqilgan. So'rovnoma umumta'lim maktab o'quvchilari va ularning ota-onalari ishtirok etgan.



6-rasm. Umumta'lim maktablari o'quvchilarining ota-onalari maktab to'g'risidagi ma'lumotni olgan manbalari¹⁸

Tadqiqotda jadval uch guruhga bo'lingan o'zgaruvchining chastota va foiz taqsimotini aks ettiradi: "O'quvchilarning ota-onalari" va "O'quvchilar". Masalan, davlat turkumda 394 chastotasi mavjud bo'lib, umumiy holatlarning 80 %, 90 %ni tashkil qiladi.



7-rasm. Umumta'lim maktablari o'quvchilari ota-onalarining farzandlari uchun muhim jihatlari to'g'risidagi so'rovnoma natijalari¹⁹

Boshqacha aytganda, 487 ta holatdan (yoki kuzatishlardan) 394 tasi shu toifaga kiradi. Umumta'lim turkumida 81 ta chastota mavjud bo'lib, bu umumiy holatlarning 16,63%ni tashkil qiladi yoki 487 ta holatdan 81 tasi bunday toifaga kiradi. QTD turkumida 12 ta chastota mavjud bo'lib, umumiy holatlarning 2,46 %ni tashkil qilsa, binobarin 246 ta holatdan 12 tasi bu toifani izohlaydi (8-jadval).

Ekonometrik tahlillar jarayonida Stata 14.0 dasturi vositasida tarkibi tuzilmaviy modeldan (Principal component analysis) foydalanilgan. Tasodifiy tanlangan jami respondentlar soni 487 ta bo'lib, bir qator gipotezalar shakllantirilgan.

Tasodifiy tanlangan jami respondentlar soni 487 ta bo'lib, bir qator gipotezalar shakllantirilgan.

¹⁸ Muallif ishlanmasi.

¹⁹ <https://www.stata.com/manuals/mvfactorpostestimation.pdf>.

H₁: Kognitiv omillar (Cognitive factors) xususiy maktab imijiga samarali ta'sir qiladi;

H₂: Affektiv omillar (Affective factors) o'zgaruvchilar vositachi (Mediating variable) asosida xususiy maktab imijiga samarasiz ta'sir qiladi.

8-jadval

“Xususiy maktab imiji” Latent o'zgaruvchisini tuzish tartibi²⁰

(obs=487)

Factor analysis/correlation

Number of obs = 487

Method: principal-component factors

Retained factors = 1

Rotation: (unrotated)

Number of params = 8

Factor	Eigenvalue	Difference	Proportion	Cumulative
Factor1	4.823	4.300	0.568	0.568
Factor2	0.625	0.088	0.069	0.648
Factor3	0.428	0.033	0.049	0.695
Factor4	0.383	0.053	0.044	0.758
Factor5	0.323	0.099	0.037	0.793
Factor6	0.215	0.034	0.025	0.837
Factor7	0.173	0.015	0.019	0.866
Factor8 ²¹	0.176	.	0.019	1.000

LR test: independent vs. saturated: $\chi^2(36) = 3198.61$ Prob> $\chi^2 = 0.0000$

Factor loadings (pattern matrix) and unique variances

Variable	Factor1	Uniqueness
Akademik natijalar	0.678	0.289
O'quv dasturlar sifati	0.733	0.236
Xususiy maktab taniqliligi	0.674	0.327
O'qituvchilarning malakasi	0.757	0.196
Tartib-intizom va xavfsizlik	0.734	0.233
Zamonaviy auditoriya	0.728	0.241
Baholash va monitoring tizimi	0.735	0.232
Narx va moliyaviy shaffoflik	0.690	0.293

Mazkur gipotezalarni tekshirishda jami o'zgaruvchilar 4 ta yashirin o'zgaruvchi (Latent variable) (Unobserved variable) yordamida tuzib olingan. Bu esa, tadqiqot jarayonida ishtirok etgan o'zgaruvchilarni (Observed variable) bir modelda jamlab, ular yuzasidan ishonchli xulosa qilish imkonini beradi.

O'rganilgan 487 ta holat bo'yicha amalga oshirilgan omilli tahlil natijalariga ko'ra, bitta asosiy omil (Factor1) tanlangan bo'lib, u o'zgaruvchilarning 59,7 % dispersiyasini tushuntiradi. Bu esa ushbu latent konstruktsiya umumiy imijni shakllantiruvchi kuchli psixologik tuzilmani ifodalashini ko'rsatadi.

²⁰ Muallif ishlanmasi

²¹ <https://www.stata.com/manuals/mvfactorpostestimation.pdf>

“O‘quvchilar imiji” Latent o‘zgaruvchisini tuzish tartibi²²

(obs=487)

Factor analysis/correlation

Number of obs = 487

Method: principal-component²³ factors

Retained factors = 1

Rotation: (unrotated)

Number of params = 8

Factor	Eigenvalue	Difference	Proportion	Cumulative
Factor1	4.675	4.038	0.597	0.597
Factor2	0.448	0.065	0.058	0.674
Factor3	0.394	0.109	0.055	0.734
Factor4	0.286	0.070	0.038	0.780
Factor5	0.227	0.062	0.030	0.808
Factor6	0.173	0.027	0.024	0.853
Factor7	0.157	0.020	0.022	0.884
Factor8	0.128	.	0.018	1.000

LR test: independent vs. saturated: $\chi^2(28) = 2918.53$ Prob> $\chi^2 = 0.0000$

Factor loadings (pattern matrix) and unique variances

Variable	Factor1	Uniqueness
Akademik natijalar va bilim darajasi	0.757	0.195
Ma'naviy va axloqiy tarbiya	0.756	0.198
Tashabbuskorlik	0.759	0.190
O'quvchining so'zlash, eshitish, fikr bildirishdagi madaniyati	0.759	0.192
Ijtimoiy tarmoqlarda o'zini tutishi	0.667	0.339
O'qituvchilar va sinfdoshlar bilan munosabat	0.744	0.207
Tashqi ko'rinishi	0.785	0.147
Estetik ko'rinish va kiyinish uslubi	0.727	0.245

O'qituvchi (real) imiji, o'qituvchi raqamli imiji va maktab infratuzilmasi singari o'zgaruvchilar 1-omil bo'yicha nisbatan yuqori omil yuklanishiga ega bo'lib, ular ushbu asosiy omil bilan kuchli bog'liqligini ko'rsatadi. Noyob tafovutlarga ko'ra, har bir o'zgaruvchidagi dispersiyaning ma'lum bir qismi saqlanib qolgan omillar tomonidan hisobga olinmaydi. Shu tarzda ilk Latent o'zgaruvchi tuzib olingan.

Navbatdagi “O‘quvchilar imiji” Latenti ham mazkur ketma-ketlik asosida tuzib olinadi.

Korrelyatsiya matritsasining determinanti 0,002ga teng, bu o'zgaruvchilarning o'zaro bog'liqligi yuqori emasligini ko'rsatadi.

Sharsimonlikning Bartlett testi chi-kvadrat qiymati 2912,495 va r-qiymati 0,000 bilan ahamiyatlidir. Bu o'zgaruvchilarning o'zaro bog'liqligini va omil tahlili uchun mos ekanligini ko'rsatadi.

²² Muallif ishlanmasi²³ <https://www.stata.com/manuals/mvfactorpostestimation.pdf>

“O‘qituvchilar imiji” Latent o‘zgaruvchisini tuzish tartibi²⁴

(obs=487)

Factor analysis/correlation

Number of obs = 487

Method: principal-component factors

Retained factors = 1

Rotation: (unrotated)

Number of params = 7

Factor	Eigenvalue	Difference	Proportion	Cumulative
Factor1	3.889	3.525	0.622	0.622
Factor2	0.475	0.122	0.072	0.684
Factor3	0.264	0.015	0.040	0.753
Factor4	0.249	0.038	0.039	0.790
Factor5	0.193	0.018	0.033	0.843
Factor6	0.175	0.043	0.029	0.880
Factor7	0.123	.	0.020	1.000

LR test: independent vs. saturated: $\chi^2(21) = 2520.53$ Prob> $\chi^2 = 0.0000$

Factor loadings (pattern matrix) and unique variances

Variable	Factor1	Uniqueness
Pedagogik tajriba	0.744	0.206
Professional tajriba	0.757	0.195
Shaxsiy fazilatlar	0.720	0.255
O‘quvchilarga mehribonligi	0.758	0.190
Sog‘lomligi	0.742	0.220
Ijtimoiy tarmoqdagi faolligi	0.793	0.104
Tashqi ko‘rinishi	0.749	0.198

O‘qituvchi imiji tahlilida 62,2 % dispersiyani tashkil etuvchi yagona asosiy omil aniqlangan. Eng kuchli ta’sir ko‘rsatgan omillar: raqamli faollik (0.793), mehribonlik (0.758) va professional tajriba (0.757). Boshqa omillar ham yuqori yuklamalarga ega. KMO = 0.886 va Bartlett testi model ishonchliligini tasdiqlaydi. O‘qituvchi “real imiji” va “raqamli imiji” o‘rtasidagi korrelyatsiya 0.898 ni tashkil etib, bu fazilatlar uyg‘un holda shakllanishini ko‘rsatadi.

Pirson juft korrelyatsiya matritsasi²⁵

Pairwise correlations

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)
(1) Xususiy maktab imiji	1.000			
(2) O‘qituvchi real imiji	0.789	1.000		
	(0.000)			
(3) O‘qituvchi raqamli imiji	0.797	0.865	1.000	
	(0.000)	(0.000)		

“O‘qituvchi imiji”ning “xususiy maktab imiji” ($r=0.886$) va “o‘quvchi imiji” ($r=0.954$) bilan kuchli korrelyatsiyasi aniqlangan. “Amaliyot imiji” ham bu omillar bilan yaqin bog‘liq ($r\approx 0.87-0.91$). Bu shuni ko‘rsatadiki, maktab imiji faqat ta’lim

²⁴ Muallif ishlanmasi²⁵ Muallif ishlanmasi

sifati bilan emas, balki o'quvchi va o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini, muloqot madaniyati, hissiy jihatlari va raqamli maydondagi ishtiroki bilan shakllanadi. Strategik boshqaruvda maktab shaxsiyati va ijtimoiy ta'sirini ham qamrab olishi zarur.

12-jadval

Latent o'zgaruvchilarning oddiy to'g'ri chiziqli regressiya modeli²⁶

Linear regression

Xususiy maktab imiji	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
O‘qituvchi (real) imiji	0.457	.259	3.67	0	.79	1.124	***
O‘qituvchi raqamli imiji	1.326	.186	3.93	0	.749	1.893	***
Maktab infratuzilmasi	1.721	.109	5.89	0	1.006	1.736	***
Constant	-3.6	.067	-47.20	0	-3.75	-3.45	***
Mean dependent var		0.000	SD dependent var		1.000		
R-squared		0.743	Number of obs		398		
F-test		695.797	Prob > F		0.000		
Akaike crit. (AIC)		433.267	Bayesian crit. (BIC)		449.808		
*** $p<.01$, ** $p<.05$, * $p<.1$							

Regressiya natijalariga ko'ra, kuzatuvlar soni 487 ta va F-statistika qiymati 695,797 ni tashkil qiladi. Bunday holda, r-qiymati 0,0000 bo'lib, bu modelning statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Determinatsiya koeffitsiyentini ifodalaydi, u mustaqil o'zgaruvchilar bilan izohlanadigan qaram o'zgaruvchidagi dispersiya ulushini o'lchaydi. Bunday holda, R-kvadrat qiymati 0,8315 ni tashkil qiladi, bu model qaram o'zgaruvchidagi dispersiyaning taxminan 83,15 %ni tushuntiradi.

O'qituvchi (real) imijini bir birlikka rivojlantirish natijasida xususiy maktab imiji 0.457 birlikka rivojlanadi. O'qituvchi raqamli imijini bir birlikka rivojlantirish natijasida xususiy maktab imiji 1.326 birlikka rivojlanadi.


$$\widehat{\text{Xususiy maktab imiji}} = -3.6 + 0.457 \cdot \text{O'qituvchi (real) imiji} + 1.326 \cdot \text{O'qituvchi raqamli imiji} + 1.721 \cdot \text{Maktab infratuzilmasi}$$

Shapiro-Wilk W testiga muvofiq regressyaini jami qoldiqlari (yhat) va model xatoliklarining (ehat) normal taqsimlangani tekshirilganda V-statistika - bu normallikning nol gipotezasi ostida standart normal taqsimotdan keyin W-statistikaning o'zgarishlar turlicha ekanligi aniqlangan.

Bu SEM (Structural Equation Modeling) modeli xususiy maktab imijini belgilovchi omillar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni kompleks tarzda tahlil qiladi. Modelda o'qituvchining shaxsiy sifati, tashqi ko'rinishi va raqamli faolligi orqali real imiji shakllanadi; bu esa umumiy maktab imijiga bevosita ta'sir etuvchi latent o'zgaruvchidir. Eng ta'sirchan omillar: "pedagogik tajriba", "ijtimoiy

²⁶ Muallif ishlanmasi

tarmoqlardagi faollik” va “tashqi ko‘rinish” bo‘lib, ular maktabga jamoatchilik munosabatini shakllantiradi. Shaxsiy fazilatlar (mehrbonlik, odob, sog‘lomlik) ham ta’sir qiladi, biroq nisbatan pastroq koeffitsiyentlar bilan. E’tiborga molik jihat shuki, modelda rahbariyat imiji ham mustaqil latent omil sifatida kiritilgan bo‘lib, uning ta’siri o‘qituvchi imijidan ham kuchliroq ($\beta=0.15$). Demak, maktab brendi faqat ta’lim mazmuni emas, balki o‘qituvchi va rahbar kadrlarning raqamli va shaxsiy kommunikatsiyadagi ko‘rinishiga ham bevosita bog‘liq.



8-rasm. Tuzilmaviy regressiya modeli²⁷

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, jami o‘quvchilarning 3,2 mln. nafari (51,3 foiz)ni o‘g‘il bolalar tashkil etadi, qiz bolalar soni esa 3,1 mln. nafar (48,7 foiz)ga teng bo‘lgan. Bundan oldin doimiy aholining necha foizi mehnatga layoqatli ekani ma’lum qilingangan. 1-iyul holatiga O‘zbekiston doimiy aholisi yosh guruhlari bo‘yicha tarkibi quyidagicha: mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar – 31,6 %; mehnatga layoqatli yoshdagilar – 57,2 %; mehnatga layoqatli yoshdan kattalar – 11,2 %²⁸.

O‘zbekistonda umumta’lim maktablarini 2030-yilgacha rivojlanishishning prognoz ssenariylari 13-jadvalda keltirilgan.

²⁷ Muallif ishlanmasi

²⁸ Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Prognoz ko'rsatkichlariga asosan, 2025-yilda xususiy maktablarda ta'lim oluvchi o'quvchilar soni 140 176 nafarni tashkil etishi kutilgan. Bu ko'rsatkich keyingi yillarda muttasil o'sib borib, 2030-yilga kelib, 305 591 nafarga yetgani kuzatiladi. Bu esa 2025–2030-yillar davomida o'quvchilar soni taxminan 118 %ga, ya'ni qariyb ikki barobarga oshishi kutilayotganini bildiradi.

Ayniqsa, 2025–2027-yillardagi o'sish sur'ati o'rtacha yillik 33 000–35 000 nafar atrofida bo'lib, bu jadal rivojlanishni ko'rsatadi. 2028–2030-yillarga kelib, o'sish biroz barqarorlashib, har yili taxminan 33 000 o'quvchiga teng qo'shimcha qayd etiladi. Bu esa bozor to'yinishining boshlanish bosqichiga yetib kelayotgani yoki raqobat kuchayishi asosida o'sish sur'atining nisbatan sekinlashishini anglatishi mumkin.

13-jadval

O'zbekistonda 2025-2030-yillarda xususiy maktablarda o'qiyotgan o'quvchilar sonining prognoz ko'rsatkichlari²⁹

Yillar	Prognoz qiymatlar
2025	140176
2026	173259
2027	206342
2028	239425
2029	272508
2030	305591

Xulosa qilib aytganda, jadvaldagi prognoz ma'lumotlar xususiy maktablar tarmog'ining tizimli kengayishi va bu sohadagi investitsion salohiyatning yuqoriligini ko'rsatadi. Bu prognozlar mamlakat ta'lim siyosatida xususiy sektorning o'rnini kuchaytirish zarurligini belgilab beradi. Shuningdek, mazkur rivojlanish tendensiyasi kadrlar tayyorlash, ta'lim sifatini monitoring qilish va normativ bazaga zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni talab etadi.

XULOSA

Xususiy umumta'lim maktablari imijini baholashning metodologik jihatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot davomida quyidagi ilmiy xulosalar olindi:

1. Muassasaning brend imiji bir qator omillar va o'zaro ta'sir qiluvchi harakatlar ta'sirida shakllangan jamiyatning turli guruhlar tomonidan mazkur muassasani qabul qilish mahsuli hisoblanadi. Imij shaxs, kishilar guruhi, tashkilotlar va ularning faoliyati natijalari singari ijtimoiy toifalar bilan o'zaro bog'liq. Jamoatchilik ongida brend imij to'g'risida har bir faoliyat muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi qadriyat sifatidagi tasavvur tobora kuchayib bormoqda. Qabul qilingan sifat va imij ma'lum bir tashkilotning taniqlilik brendi bilan solishtirganda, tashkilotning brend kapitalini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

²⁹ <https://www.stata.com/manuals/mvfactorpostestimation.pdf>

2. Ta'lim muassasasining ijobiy imijini shakllantirishda quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi: "tashkilotning moliyaviy ahvoli haqidagi tasavvurlar ("barqaror", "taraqqiy etgan"); tashkilot tarixi, uning an'analari, nufuzi haqida ("uzoq vaqtdan buyon faoliyat yuritadi", "obro'li firmalar u bilan hamkorlik qiladi"); rahbarning shaxsiyati haqida ("hurmatli va munosib inson boshqaruvni qo'liga olgan"); "mashhurlar" xususiyatlari haqida — reklama orqali tanilganlik ("ijobiy fikrlar"); xodimlarga munosabat haqida ("xodimlar o'z kelajagi borasida xotirjam", "yuqori mas'uliyat bo'lsa-da, ko'p erkinlik bor"); jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyat to'g'risida — ish sifati, faoliyat turi, iste'molchiga yo'naltirilganligi, unga g'amxo'rlik ("majburiy", "asil va kerakli mahsulot ishlab chiqaradi"); tashkilotni boshqarish haqida ("qiyin vaziyatlardan sharaf bilan chiqadi", "ilmiy asoslangan ilg'or boshqaruv"); korporativ uslub haqida ("nufuzli idora", "chiroyli emblema"); faoliyat va munosabatlar etikasi haqidagi ("halol") kishilardagi ijtimoiy tasavvurlar.)

3. Xususiyy umumta'lim muassasasining imiji ko'p qatlamli va murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, u asosan uchta asosiy komponent — rahbar imiji (liderlik uslubi), pedagoglar tarkibining imiji va o'qitish sifati orqali jamiyat ongida shakllanadi. Bu jihatlar muassasa haqida ijobiy yoki salbiy ijtimoiy tasavvur hosil bo'lishida asosiy o'ringa ega.

4. Tadqiqotda umumta'lim tashkilotlari imijining darajalarini baholash uslubi takomillashtirilgan hamda imijni baholash uchun shkala ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan uslub asosida O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarining brend imiji baholangan. Imijga ta'sir etuvchi omillar: O'zbekiston Respublikasidagi mavjud umumta'lim muassasalari soni; ta'lim oluvchilar soni; pedagogik xodimlar soni; oliy ma'lumotli o'qituvchilar soni; navbat bilan – smena asosida ishlovchi muassasalar soni; umumta'lim muassasalarida smena asosida o'qiyotgan ta'lim oluvchilar soni; bitiruvchilar bo'yicha umumta'lim muassasalaridagi ta'lim oluvchilar soni olingan.

O'zbekiston Respublikasidagi umumta'lim muassasalari imijini baholash hisobi ko'rsatdiki, Samarqand (54,419 foiz), Qashqadaryo (93,996 foiz), Farg'ona (51,237 foiz), Surxondaryo (45,923 foiz) va Andijon (42,339 foiz) viloyatlarida imijning yuqori darajasi qayd etilgan.

5. Mamlakatimizda so'nggi uch yil davomida 157 ta umumta'lim maktabi barpo etilgan, ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida o'qituvchilarning ish haqi 2,5 baravar oshirilgan. Olis tumanlarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirish mezonlari belgilanib, ularga har oyda 50 foizgacha miqdorda ustama to'lanadi. Bu chora-tadbirlar mutaxassislar yetishmaydigan chekka hududlarga minglab o'qituvchilarni jalb etish imkonini beradi.

6. 2023/2024 o'quv yili boshiga O'zbekiston Respublikasida 827 ta boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'limi muassasalari soni va 86 ta akademik litseylar faoliyat yuritgan. Kasb-hunar maktablar soni 342 tani, kollejlarda soni 184 tani va texnikumlar soni 215 tani tashkil etgan. O'zbekiston Respublikasida 2023/2024 o'quv yili boshiga 86 ta akademik litseylarda 35,9 ming nafar o'quvchi

tahsil olgan bo'lib, 17,3 ming nafar o'quvchi ta'lim muassasalarini tamomlagan. 2023/2024 o'quv yilining boshida esa 86 akademik litseylarda, 40,9 ming nafar o'quvchi tahsil olgan va 16,9 ming nafar o'quvchi tamomlagan. O'zbekiston Respublikasida 2023/2024 o'quv yili boshiga 342 ta kasb-hunar maktablarida 168,3 ming nafar, 184 ta kollejlarda 95,2 ming nafar va 215 ta texnikumlarda 105,0 ming nafar o'quvchi tahsil olgan.

2024-yil 1-yanvar holatiga Respublika bo'yicha (14 hudud 201ta tuman va shaharlar) umumta'lim muassasalar soni 9 691 ta bo'lib, shulardan 6 tasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi maktablar hisoblanadi. Maktablarda hamma o'qitish tillari bo'yicha sinflar soni 227 325 tani tashkil etadi.

7. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi qoshidagi ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasining 2022-2023-yildagi hisobotlariga ko'ra, hududlarda davlat maktablari reytingi tuzishga urinilgan. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ta'lim inspeksiyasi tomonidan o'rganishga tanlab olingan maktablar reytingida top-100 talikda hududlarning ulushi yuqori bo'lgan hududlardan: Namangan viloyati (63.39 foiz), Xorazm viloyati (63.39 foiz), Navoiy viloyati (59.76 foiz) hamda Buxoro viloyati (58.59 foiz) yetakchilik qilgan.

8. Mamlakatimizda umumta'lim muassasalarda o'quvchilar soni mutanosib ravishda Toshkent shahri, Farg'ona, Andijon, Buxoro, Samarqand va Namangan viloyatlari tashkil qiladi. Bu umumta'lim muassasalarida o'qituvchilar soniga nisbatan o'quvchilar soni quyidagicha bo'lganligini ko'rish mumkin: Namangan – 8,3, Farg'ona – 9,7 kishi, Andijon – 12,2 kishi, Toshkent sh. – 12,3 kishi, Samarqand – 12,9 hamda Buxoro – 14,1 kishi to'g'ri keladi. Demak, aynan Namangan va Farg'ona viloyatlarida kichik guruhlarda mashg'ulotlar olib boriladi, bu viloyatlardagi umumta'lim maktablarida o'quvchilarga ko'proq o'qituvchilar birlashtirilib, individual yondashuv mavjud degan xulosaga kelingan.

9. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hududlarda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va ulardagi o'quvchilar soni (Samarqand, Surxondaryo hamda Sirdaryo viloyatlaridan tashqari) aksariyat hududlarda o'sish dinamikasi ega bo'lgan. Umumta'lim muassasalarining yana bir yo'nalishi sifatida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ixtisoslashgan maktablarni tashkil etish hisoblanadi. Albatta bunda moliyaviy jihatdan salohiyati yetarli bo'lgan ota-onalargina mijoz bo'lishi mumkin.

10. ARMA modeliga asoslangan prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, 2025-yilda xususiy maktablarda 140 176 nafar o'quvchi tahsil olishi kutilgan. Bu ko'rsatkich yildan-yilga barqaror o'sib, 2030-yilga kelib 305 591 nafarga yetadi. Demak, 2025–2030-yillar oralig'ida o'quvchilar soni taxminan 118 %ga ortadi, ya'ni deyarli ikki barobarga oshadi. Bu o'sish bosqichma-bosqich jadallik bilan kechadi, masalan 2025–2027-yillarda yillik o'sish o'rtacha 33 000–35 000 o'quvchiga teng bo'lib, jadallikning yuqori cho'qqisiga chiqadi. Shuningdek, 2028–2030-yillarda esa bu ko'rsatkich bir oz barqarorlashadi, bu holat xususiy ta'lim bozorida raqobat kuchayishi yoki to'yinish bosqichi boshlanishini anglatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, prognoz qilingan ko'rsatkichlar eksponensial shaklga ega bo'lib, O'zbekistonda xususiy ta'lim tarmog'ining jadal rivojlanayotgani va bu sohada investitsion salohiyat yuqori ekanligini namoyon etadi. Bunday rivojlanish tendensiyasi davlat tomonidan xususiy ta'lim sektorini rivojlantirishga oid strategiyalarni qayta ko'rib chiqish, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini monitoring qilish hamda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2020.I.16.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО
МАСТЕРСТВА ИМЕНИ А.АВЛОНИ**

ОДИЛОВА СИТОРА САЙФИТДИН КИЗИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ
ИМИДЖА ЧАСТНЫХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ С
ПОМОЩЬЮ МАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ**

08.00.11 – Маркетинг

**Диссертация на соискание учёной степени доктора экономических наук (DSc)
АВТОРЕФЕРАТ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под № B2024.1.DSc/Iqt633.

Диссертация выполнена в Национальном институте педагогического мастерства имени А.Авлони.

Автореферат диссертации выполнен на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) и размещён на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и на информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный консультант: Останакулова Гульсарахон Мухаммадқуб кизи,
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Гулямов Саидахор Саидахмедович,
доктор экономических наук, профессор, академик

Хошимов Акрам Абдиевич,
доктор экономических наук, профессор

Шамшиева Наргизахон Носирхожа кизи,
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Ташкентский университет информационных технологий

Защита диссертации состоится «25» 11 2025 года, в «14» 00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2020.I.16.02 по присуждению учёных степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под номером 1821). Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tsiu.uz.

Автореферат диссертации был разослан «11» 11 2025 года.

(Протокол реестра № 59 от «10» 11 2025 года)



[Signature] Г.К. Абдурахманова,
Председатель научного совета по присуждению
учёных степеней, доктор экономических наук,
профессор

[Signature] О.Д. Джурабаев,
Секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
экономических наук, профессор.

[Signature] Ш.А. Аллаёров,
Председатель Научного семинара при Научном
совете по присуждению учёных степеней, д.э.н.,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы исследования. В мировой экономике значение формирования положительного имиджа частных общеобразовательных учреждений с помощью маркетинговых инструментов постоянно возрастает. Это обусловлено необходимостью обеспечения конкурентоспособности на рынке образовательных услуг, формирования позитивного общественного отношения к качеству образования, укрепления доверия родителей и общества, а также поддержания устойчивого потока учащихся, что в совокупности способствует повышению финансовой и социальной стабильности учебных заведений.

В этой связи частные школы должны целенаправленно формировать и укреплять свой позитивный имидж, обеспечивая тем самым успешную деятельность на рынке образования. Так, в США учащиеся частных школ демонстрируют более высокие результаты по стандартизированным тестам по сравнению со сверстниками из государственных школ, а уровень поступления в колледжи составляет 88 %, что значительно превышает показатель государственных школ (57 %)¹. Аналогичные исследования, проведенные в Канаде, подтверждают, что учащиеся частных школ в возрасте 15 лет достигают более высоких академических результатов и в 23 года имеют большую вероятность получения высшего образования².

В данном процессе значительную роль играют цифровые маркетинговые платформы, PR-стратегии, брендинг, коммуникационные каналы, которые визуализируют положительный опыт и достижения, а также социально достоверное взаимодействие, которое способствует продвижению ценностей, приоритетов и инновационных подходов образовательного учреждения, формируя его положительный имидж и укрепляя позиции на рынке.

В мировой практике ведущие участники рынка образовательных услуг — общеобразовательные учреждения — осуществляют целевые научные исследования, направленные на разработку эффективных механизмов управления их вкладом в развитие страны и общества. В этих исследованиях особое внимание уделяется вопросам повышения рейтинга и конкурентоспособности школ, совершенствованию брендинга и маркетинговых стратегий, повышению качества образования, оптимизации управленческих процессов и регулирования, а также внедрению механизмов здоровой конкуренции в образовательную среду.

В Узбекистане среди приоритетных задач по совершенствованию методологии формирования имиджа частных общеобразовательных учреждений с использованием маркетинговых инструментов выделяются: эффективное продвижение качества образования через средства массовой информации, разработка брендинговых стратегий, способствующих повышению конкурентоспособности, активное внедрение цифровых маркетинговых инструментов (веб-сайты, социальные сети, контент-

¹ <https://capenetwork.org/academic-performance>

² <https://www150.statcan.gc.ca/n1/pub/11-626-x/11-626-x2015044-eng.htm>

маркетинг, SMM), организация доверительного диалога со стейкхолдерами (родителями, учащимися, местным сообществом), а также интеграция принципов социальной и корпоративной ответственности в образовательный имидж.

В целях реализации указанных задач в частных образовательных учреждениях создаются профессиональные маркетинговые группы, систематически продвигаются достижения учащихся и инновационные подходы через цифровые платформы, что способствует формированию активного и позитивного имиджа в образовательной сфере.

В Узбекистане вопросам развития системы управления образованием уделяется особое внимание. В частности, в пункте 4 «Справедливое социальное развитие и формирование человеческого капитала» Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы определены приоритетные задачи по модернизации системы среднего образования в соответствии с современными требованиями. Эффективная реализация этих задач требует глубокого анализа тенденций развития сферы общего образования, повышения эффективности управления подготовкой квалифицированных кадров и разработки научно обоснованных предложений и практических рекомендаций.

Диссертационное исследование в определённой степени послужит реализации задач, намеченных в указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О стратегии развития «Нового Узбекистана» на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года, № УП-6097 «О концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, № УП-5712 «О концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 29 апреля 2019 года, № УП-5544 «О стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2019–2021 годы» от 21 сентября 2018 года, № УП-5538 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы управления народным образованием» от 5 сентября 2018 года, а также постановлении №ПП-3931 «О мерах по внедрению новых принципов управления в систему народного образования» от 5 сентября 2018 года, постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 243 «О утверждении Положения о формировании и использовании внебюджетных фондов организаций системы народного образования» от 27 апреля 2021 года и № 1059 «О концепции непрерывного духовного воспитания и мерах по её реализации» от 31 декабря 2019 года, а также в других нормативно-правовых актах, регулирующих данную сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики» развития науки и технологий в республике.

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Исследования по методологии формирования бренда частных образовательных учреждений проводятся в ряде научных центров и высших

учебных заведений мира, включая Harvard University (США), Oxford University (Великобритания), Cambridge University (Великобритания), Imperial College London (Великобритания), Massachusetts Institute of Technology (MIT) (США), Stanford University (США), California Institute of Technology (США), ETH Zurich (Швейцария), University of Chicago (США), University of Pennsylvania (США), Princeton University (США), Yale University (США), University of Tokyo (Япония), University of Toronto (Канада), Australian National University (Австралия).

Зарубежные научные исследования по формированию бренд-имиджа частных образовательных учреждений в основном проводились следующими центрами и университетами: в исследовании Harvard Business School (США) рассмотрены стратегические подходы к формированию и управлению брендом, направленные на повышение бренд-капитала и репутации образовательных учреждений; в Imperial College London (Великобритания) разработаны методы оценки стоимости бренда частных образовательных учреждений, а также способы развития и применения показателей бренд-капитала; в INSEAD (Франция) изучены методологии классификации и оценки брендов в образовательной системе, а также координация бренд-менеджмента и маркетинговых мероприятий; в University of Cambridge (Великобритания) анализированы подходы к созданию имиджа частных образовательных учреждений и разработке, а также реализации бренд-стратегии; в Stanford University (США) исследованы модели формирования и управления брендом в сфере образования, а также оценивалась эффективность бренд-мероприятий; в University of Oxford (Великобритания) изучены методы управления бренд-капиталом и имиджем в системе частного образования. Глубокое изучение и анализ научных исследований, проведённых указанными центрами и университетами, позволило развивать исследования по совершенствованию методологии формирования бренд-имиджа частных образовательных учреждений и широко применять их на практике.

